
Akademik litseyda navbatdagi ota-onalar yig'ilishi bo'lib o'tdi

Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyida navbatdagi ota-onalar yig'ilishi bo'lib o'tdi. Majlis kun tartibi haqida Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyi ijrochi direktori Bobur Abdurazzoqov ota-onalarga ma'lumot berdi.

Yig'ilishda ikki tomonlama hal etilishi kerak bo'lgan muammolar ko'rib chiqildi, o'quvchilarning odob-axloqi, kiyinish madaniyati to'g'risida ham so'z yuritildi. Yig'ilishda ota-onalar tomonidan ham bir qancha takliflar berildi.

